

O'QUVCHILARIDA KREATIVLIKKA O'RGATISHDA

O'QITUVCHINING ROLI

Turdiyeva Raxima Kurbanovna

Guliston davlat universiteti

raximatur63@gmail.com

ANNOTANSIYA

Mazkur maqolada o'qituvchining pedagogik kreativligi, kreativlik salohiyati qobiliyati, ahamiyati, uni rivojlantirish yo'llari, kreativlikni rivojlantiruvchi komponentlari, mezonlari haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik kreativlik, ijodkor, ijodiy salohiyat, faoliyat, rivoflanish, intellekt, tashabbuskorlik, yondashuv, pedagogik muammo, komponent, mezon, faollik.

THE TEACHER'S ROLE IN TEACHING CREATIVITY IN STUDENTS

Turdiyeva Rakhima Kurbanovna

Gulistan State University

rakhimatur63@gmail.com

ANNOTATION

This article discusses the pedagogical creativity of the teacher, the ability of the creative potential, its importance, the ways of its development, the components and criteria that develop creativity.

Keywords: pedagogical creativity, creator, creative potential, activity, development, intellect, initiative, approach, pedagogical problem, component, criterion, activity

РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ОБУЧЕНИИ ТВОРЧЕСТВУ СТУДЕНТОВ

Турдиева Рахима Курбановна

Гулистанский государственный университет

rakhimatur63@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается педагогическое творчество учителя, возможности творческого потенциала, его значение, пути его развития, компоненты и критерии, развивающие креативность.

Ключевые слова: педагогическое творчество, творец, творческий потенциал, активность, развитие, интеллект, инициатива, подход, педагогическая проблема, компонент, критерий, активность.

Kirish

Bugungi kunda o'quvchilarga zamonaviy ta'lim berish, ularni kreativ, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilardan intellektual bilim, yuksak qobiliyat, kreativlik salohiyati va pedagogik mahorat talab etadi. Chunki davr o'tishi bilan muhit, sharoit, vaziyat va insonlar o'zgaradi. Jumladan, o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlari ham o'zgaradi. Shuningdek, fan-texnika, axborot-texnologiyalarning jadal rivojlanishi va bu sohada erishilayotgan yutuqlarning ko'pligi, ta'lim tizimidagi yangiliklar pedagoglarning malakaviy darajasiga yuqori talablarni qo'yimoqda. Shu talablardan kelib chiqqan holda, o'qituvchi mutaxassislik fanlarini chuqur egallashlari, yangiliklarni o'z vaqtida anglay olishlari, zamon bilan hamnafas bo'lishlari, fan-texnikaning eng so'ngi yutuqlari orqali darslarni tashkil eta olishlari va o'z ustida tinmay ishlashlarini taqozo etadi.

O'qituvchiga qo'yilayotgan zamonaviy talablardan yana biri bu- o'quvchilarni kreativlikka, ijodkorlikka, mustaqil, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdan iborat. Yoshlarda bunday malakalarni shakllantirishdan oldin o'qituvchining ozi ijodkor layoqatiga ega bo'lmog'i, yangiliklardan xabardor bo'lishi, o'z ustida mukammal ishlamoq'i darkor.

Adabiyotlar tahlili:

O'qituvchilarda kreativlik salohiyatini rivojlantirish jarayoning mohiyatini anglash uchun "Kreativlik" tushunchasini anglab olish talab etiladi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, "kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni

tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi"[3, 86 b.]. Angliyalik olim KenRobinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui"[6, 74 b.] sanaladi. Amerikalik psixolog Gardner esa o'z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim" [7, 110 b.] Tahlillar natijasiga ko'ra, Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor)shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Kreativlik shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

Muhokama va natijalar

O'qituvchining kreativ sifatleri ularning shaxsiy qobiliyatlari, bilimlari va to'plagan shaxsiy tajribalariga bog'lik. Shuningdek, kreativ sifatga ega pedagog dars jarayonida ifodiy yondashadi, o'quvchilarni fikrlashga undaydigan ilg'or g'oyalarni ilgari surishda faollik ko'rsatadi, ilg'or tajribalarni va yangi o'quv metodik adabiyotlar bilan tanishishga e'tibor qaratadi.

Kreativlikni o'rganish asosan ikki yo'nalishda olib boriladi:

1-yo'nalish. Kreativlikni intellekt bilan bog'liqligi masalalarini va kreativlik bilan bog'liq ta'limiy jarayonlarni belgilashni o'rganadi.

2-yo'nalish. Shaxs va uning psixologik o'ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi, shaxsga va uning motivatsion chizgilariga urg'u berilishi bilan tasniflanadi



Pedagogik kreativlik (ijodkorlik) - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. "Pedagogik ijodkorlik" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o'quvchilar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2) o'qituvchilarga o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali sinfda ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

O'qituvchida kreativlik salohiyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib, ijodiy faoliyatning natijasi sanaladi. Mazkur sifat o'qituvchining o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Kreativ salohiyat negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ salohiyat bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreatigi an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;

yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;

bir qolipda fikrlamaslik;

o'ziga xoslik;

tashabbuskorlik;

noaniqlikka toqat qilish;

zakovatli bo'lish

O'qituvchilar kreativlik salohiyatiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;

yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;

ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;


hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish

Har bir o'qituvchining o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning



kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, darslarga o'zgacha uslubda yondashish, o'quvchilarni darslarga qiziqitirish, noodatiy topshiriqlari berish orqali ularning ijodkorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Muammoli vaziyatlar yaratish, muammoli masalalarni yechish, tahlil qilish, shuningdek, ta'lim jarayonida ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirish jarayoni quyidagi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi (1-rasmga qarang).




Kreativlik salohiyatga ega o'qituvchi o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;

masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
masalani hal qilish rejasini tuzish;
masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;
masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish

O'qituvchining ijodkorlik– kreativ darajasini baholash muhim ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi mezonlar bilan aniqlanadi: (2-rasm):



Xulosa va amaliy takliflar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi kreativligining ko'rsatkichlari yuqori bo'lishlari uchun quyidagilarga amal qilmoqi lozim:

O'z bilimini doimo rivojlantirib borishi;

O'zining pedagogik tajribalarini doimo takomillashtirib borishi.

Sohasidagi so'nggi innovatsion yangiliklarni bilishi va ularni o'zining faoliyatida o'rinli va unumli qo'llay olishi

Ijodkor bo'lishi.

Bolalarning yosh, individual va psixologik o'ziga xos jihatlarini bilib olishi va shunga mos tarzda o'qituvchi yo'l tutishi.

Innovatorlik xususiyatlarga ega bo'lish.

O'qituvchining mehnat sharoitini takomillashtirish

O'qituvchining kreativlik faoliyati innovatsion yangiliklar bilan muntazam boyitib borish darkor. Shuningdek, ijodkor pedagog ta'lim jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratmog' darkor:

1. O'quvchilar bilan do'stona aloqa o'rnatish.
2. Bilim berishda ijobiy muhit yaratish.
3. Stereotiplarni buzish.
4. O'quvchilarni ko'proq harakat qildirish.
5. Guruhlarga bo'lib qo'yish.
6. O'quvchilarda muvaffaqiyatni rag'batlantirish
7. Bir xillikdan qochish
8. Ma'lumotni real hayot bilan bog'lash.
9. Darsda turli yondashuvlardan foydalanish

Xulosa qilib aytganda, pedagogik faoliyati doimiy ijodkorlik jarayoni bo'lib o'qituvchidan ijodkorlikni, o'z-o'zini rivojlantirishi, zamon bilan hamnafas bo'lishi, erkin fikr yurita olishi va o'quvchilarni ham ijodiy, erkin fikrlashga o'rgatishi, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etishi, ta'lim jarayoniga o'zlashtirishning eng samarali usullarini qo'llashi talab etiladi. Shuningdek, o'quvchilarning fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi va boshqaradi, qiziqarli g'oyalarni rag'batlantiradi, muvaffaqiyasiz urinishlarni tahlil qiladi, o'quvchilarni mag'lubiyat va g'alabalarni amalga oshirishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-b.
3. Kreativ pedagogika asoslari. Toshkent. 2016
4. Kreativ pedagog. Qo'llanma. Toshkent. 2022. @krepeduz.

